

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

QORAQALPOQ TILSHUNOSLIGIDA BADIY TAKRORNING O'RGANILISHI VA LINGVOPOETIK TALQINI

Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti, o'qituvchi.

e-mail: Kudaybergenovag@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-2695-8839>

Annotatsiya

Maqolada qoraqalpoq tilshunosligida badiiy takror hodisasining o'rganilish bosqichlari, terminologik talqinlari, tasnifi hamda lingvopoetik vazifalari tizimli tahlil qilinadi. Takrorning dastlab takrorlama so'z va juft so'z doirasida grammatik hodisa sifatida izohlangani, keyinchalik esa fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarda badiiy-estetik vosita sifatida tadqiq etila boshlagani asoslanadi. Tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual va lingvopoetik tahlil usullari orqali Ajiniyoz she'riyatidagi alliteratsiya hamda fonetik takror namunalarini ko'rib chiqiladi. Natijada badiiy takror matnning ritmik-kompozitsion yaxlitligini ta'minlashi, mazmuniy markazni ajratishi, emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirishi va muallif idiositilini yuzaga chiqarishi aniqlanadi. Qoraqalpoq lingvopoetikasida takrorning shakliy belgi, matndagi joylashuv va poetik funktsiya birligida o'rganish zarurligi taklif etiladi. Mazkur yondashuv hodisaning milliy poetik tafakkurdagi o'rnini yanada aniq belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, badiiy takror, reduplikatsiya, alliteratsiya, assonans, anafora, epifora, ritm.

ИЗУЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПОВТОРА В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ И ЕГО ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Кудайбергенова Гульпаршин Полатбаевна

Каракалпакский государственный университет, преподаватель.

Аннотация.

В статье системно анализируются этапы изучения художественного повтора в каракалпакском языкознании, его терминологическая интерпретация, классификация и лингвопоэтические функции. Обосновывается, что первоначально повтор рассматривался как грамматическое явление в рамках повторных и парных слов, а позднее стал исследоваться как художественно-эстетическое средство на фонетическом, лексическом, морфологическом и синтаксическом уровнях. На основе описательного, сравнительно-типологического, контекстуального и лингвопоэтического методов анализируются примеры аллитерации и фонетического повтора в поэзии Ажинияза. Установлено, что художественный повтор обеспечивает ритмико-композиционную целостность текста, выделяет смысловой центр, усиливает эмоционально-экспрессивное воздействие и способствует раскрытию идиостиля автора. Предлагается изучать художественный повтор в каракалпакской лингвопоэтике в единстве его формальных признаков, текстовой позиции и поэтической функции, что позволит более полно определить его место в национальном поэтическом мышлении.

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный повтор, редупликация, аллитерация, ассонанс, анафора, эпифора, ритм, поэтическая функция, идиостиль.

THE STUDY AND LINGUOPOETIC INTERPRETATION OF ARTISTIC REPETITION IN KARAKALPAK LINGUISTICS

Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna

Karakalpak State University, Lecturer.

Abstract.

The article systematically examines the stages, terminology, classification, and linguopoetic functions of artistic repetition in Karakalpak linguistics. It shows that repetition was initially described as a grammatical phenomenon within reduplicative and paired words, whereas later studies treated it as an aesthetic device operating at phonetic, lexical, morphological, and syntactic levels. Using descriptive, comparative-typological, contextual, and linguopoetic methods, the study analyzes alliteration and sound repetition in Ajiniyoz's poetry. The findings demonstrate that artistic repetition organizes rhythmic and compositional integrity, foregrounds the semantic center of a text, intensifies emotional expressiveness, and reveals an author's individual style. The article proposes an integrated approach that considers formal structure, textual position, and poetic function together. This approach helps distinguish linguistic reduplication from deliberate artistic repetition

and clarifies the current research agenda of Karakalpak linguopoetics.

Keywords: linguopoetics, artistic repetition, reduplication, alliteration, assonance, anaphora, epiphora, rhythm, individual style.

Kirish. Badiiy matn tilning xabar berish vazifasi bilan cheklanmaydigan, estetik ta'sir va obrazli idrokni shakllantiradigan murakkab nutqiy tuzilmadir. Unda tovush, morfema, so'z, so'z birikmasi va gap kabi birliklar oddiy kommunikativ vazifasidan tashqari qo'shimcha poetik yuk oladi. Muallif tanlagan birliklarning muayyan tartibda qayta kelishi esa mazmunni ta'kidlash, ritmni tartibga solish, hissiy holatni kuchaytirish va o'quvchi diqqatini muhim nuqtaga yo'naltirish imkonini beradi. Shu sababli badiiy takror faqat bir birlikning mexanik qaytishi emas, balki matnning semantik, ritmik va kompozitsion tashkil topishida qatnashadigan lingvopoetik vosita sifatida baholanishi lozim.

Qoraqalpoq tilshunosligida takror hodisasiga qiziqish XX asrning ikkinchi yarmida kuchaydi. Dastlabki tadqiqotlarda masala, asosan, takrorlama so'zlarning yasalishi, juft so'zlardan farqi va grammatik-semantik xususiyatlari doirasida ko'rib chiqildi. Keyingi bosqichda stilistika, fonostilistika va badiiy asar tili bo'yicha izlanishlar takrorning matndagi estetik imkoniyatlarini o'rganishga yo'l ochdi. XXI asrga kelib, qoraqalpoq lingvopoetikasi alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanib, individual ijodkor tili, poetik sintaksis, fonetik uyg'unlik, frazeologik birliklarning poetik vazifasi kabi masalalar bilan bir qatorda badiiy takrorni ham kengroq tahlil qilish imkonini yaratdi [Abdinazimov 2019; Pirniyazova 2025, 222–225].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, qoraqalpoq tilshunosligida takror haqidagi qarashlar turli davr va nazariy yo'nalishlarga mansub ishlarda tarqoq holda uchraydi. Ayrim tadqiqotlarda reduplikatsiya va badiiy takror chegarasi aniq ajratilmaydi; ayrimlarida esa takror turlari sanab o'tiladi-yu, ularning matn semantikasi va muallif idiositiliga ta'siri yetarli asoslanmaydi. Natijada hodisaning grammatik shakli, matndagi joylashuvi va poetik funksiyasi o'rtasidagi munosabatni umumlashtiruvchi modelga ehtiyoj yuzaga keladi.

Maqolaning maqsadi qoraqalpoq tilshunosligida badiiy takrorning o'rganilish tarixini tizimlashtirish, takrorlama so'z bilan badiiy takrorning farqli belgilarini aniqlash hamda poetik matnda takror bajaradigan asosiy lingvopoetik vazifalarni Ajiniyoz she'riyati misolida yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari ajratiladi, mavjud tasniflar qiyoslanadi, fonetik takrorning matn hosil qiluvchi xususiyatlari tahlil qilinadi va sohadagi istiqbolli yo'nalishlar belgilanadi.

TADDIQOT MATERIALLARI VA METODLARI. Tadqiqot materiali sifatida qoraqalpoq tili stilistikasi va lingvopoetikasiga oid nazariy asarlar, so'nggi yillarda himoya qilingan dissertatsiyalar avtoreferatlari hamda Ajiniyozning tanlangan she'riy asarlaridagi takror namunalari olindi. Manbalarni tanlashda uch mezonga amal qilindi: birinchidan, asarda takrorning grammatik yoki stilistik tabiati bevosita yoritilgan bo'lishi; ikkinchidan, qoraqalpoq badiiy matni lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo'lishi; uchinchidan, tadqiqot takror hodisasining tarixiy taraqqiyoti yoki zamonaviy talqinini aniqlashga xizmat qilishi.

Maqolada tavsifiy metod yordamida takrorning terminologik va struktur belgilariga izoh berildi. Qiyosiy-tipologik metod takrorlama so'z, juft so'z va badiiy takror o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlarni aniqlashda qo'llandi. Kontekstual tahlil takrorlangan birlikning atrofida so'zlar bilan semantik aloqasini, lingvopoetik tahlil esa uning ritm, ohang, obraz va ekspressivlik yaratishdagi rolini belgilashga xizmat qildi. Ilmiy adabiyotlarni tarixiy-xronologik ko'rib chiqish orqali grammatik talqindan lingvopoetik yondashuvga o'tish jarayoni rekonstruksiya qilindi.

Tahlilda shakl va funksiya birligi asosiy tamoyil sifatida qabul qilindi. Ya'ni bir xil tovush yoki so'zning qayta kelishi o'z-o'zicha badiiy takror deb belgilanmadi. Birlikning matndagi pozitsiyasi, qaytish oralig'i, sintaktik vazifasi, mazmuniy markaz bilan aloqasi va o'quvchiga ko'rsatadigan estetik ta'siri birgalikda baholandi. Bunday yondashuv til tizimiga mansub odatiy reduplikatsiyani muallifning ongli poetik tanlovi natijasida yuzaga kelgan takrordan ajratish imkonini beradi.

Badiiy takrorni lingvopoetik hodisa sifatida tushuntirish fonetika, fonologiya, stilistika va matn sintaksisi natijalariga tayanadi. Fonologik yondashuv tovushning nutq oqimidagi har qanday qaytishini emas, ma'no farqlash va tizimiy qarama-qarshiliklarda qatnashadigan funksional xususiyatlarini ajratishga imkon beradi. N. S. Trubetskoy fonemani til tizimidagi oppozitsiyalar orqali talqin qilib, tovush birliklarini ularning vazifasi asosida baholash zarurligini ko'rsatadi [Trubetskoy 2000, 24]. N. K. Pirogova Trubetskoy qarashlarini fonetik stilistika bilan bog'lar ekan, fonologik munosabatlarning nutqiy-estetik imkoniyatlarini yoritadi [Pirogova 1992, 53–58]. Bu nazariy asos badiiy matndagi tovush takrorini oddiy akustik moslikdan farqlash uchun muhimdir.

Eksperimental fonetika tovushning artikulyatsion va akustik belgilarini obyektiv o'lchash imkonini beradi. V. A. Artemov nutq tovushlarini tajribaviy o'rganishda ularning davomiyligi, intensivligi, tembri va idrok etilish xususiyatlarini birgalikda hisobga olish lozimligini ko'rsatadi [Artemov 1956, 84]. Badiiy takror tahliliga tatbiq etilganda, bu qarash bir fonemaning matnda necha marta kelganini sanash bilan cheklanmasdan, uning urg'u, ritm, pauza va qo'shni tovushlar bilan munosabatini tekshirishni talab qiladi. Demak, fonetik takrorning poetik ta'siri grafik harflar qaytishidan emas, eshitiladigan nutq oqimida yuzaga keladigan akustik uyg'unlikdan kelib chiqadi.

G. V. Vekshin tovushiy takrorni matnning mazmun hosil qiluvchi mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, fonetik birliklarning qaytishi alohida tovushning ramziy ma'nosiga tenglashtirilmaligi, balki matndagi leksik-semantik qatorlar, ritm va kompozitsiya bilan birgalikda o'rganilishi kerak [Vekshin 2006, 38]. Bu yondashuv qoraqalpoq she'riyatidagi alliteratsiya va assonansni tahlil qilishda, ayniqsa, samaralidir: takrorlangan tovush semantik jihatdan aloqador so'zlarni birlashtirsa, u mazmunning muayyan qismini fonetik jihatdan oldingi o'ringa chiqaradi. Shunday holatda tovushiy takror bezak emas, matnning mazmuniy tuzilishini faol tashkil etuvchi vositaga aylanadi.

Takrorning funksional doirasi faqat poeziya yoki fonetik sath bilan chegaralanmaydi. N. M. Golovkina turli nutq

turlari va janrlar materialida takrorning vazifasi kommunikativ vaziyat, janr talabi va muallif maqsadiga ko'ra o'zgarishini ko'rsatadi [Golovkina 1964]. Bir janrda takror hissiy kuchaytirish vazifasini bajarsa, boshqasida mantiqiy izchillik, matn qismlarini bog'lash yoki adresat diqqatini boshqarishga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli badiiy takrori tasniflashda uning struktur shakli bilan birga janriy va pragmatik sharoitini ham hisobga olish zarur.

Leksik va sintaktik takror bo'yicha tadqiqotlar hodisani ko'p sathli tabiatini yanada aniq ko'rsatadi. A. E. Kiselev leksik qaytishni grammatik ma'no hosil qilish imkoniyati bilan bog'laydi [Kiselev 1954]. A. A. Aladina sintaktik jihatdan kengaygan leksik takrorning zamonaviy rus tilidagi qurilishini o'rganadi [Aladina 1985]. E. A. Ivanchikova leksik takror sintaktik yoyilish bilan birikkanida ekspressivlik yuzaga kelishini asoslaydi [Ivanchikova 1969, 126–139]. Bu ishlarda takror bir xil so'zning qaytishigina emas, sintaktik qurilmaning rivojlanishini boshqaruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

A. M. Nadejkin o'zak takrorini badiiy nutqning mazmunii, struktur va funksional xususiyatlari bilan bog'liq holda tadqiq etadi [Nadejkin 2015]. N. N. Volskaya esa tovushiy va morfologik takrorning bir matn doirasida o'zaro ta'sirini ko'rsatib, sathlararo takror muallif uslubini shakllantirishini asoslaydi [Volskaya 1999, 45–53]. Ushbu qarashlar badiiy takrori fonetik, leksik, morfologik va sintaktik turlarga mexanik ajratish yetarli emasligini ko'rsatadi. Poetika amaliyotida bir tovush o'zak tarkibida, o'zak turli grammatik shakllarda, grammatik shakl esa parallel sintaktik konstruksiyalarda qaytishi mumkin. Shuning uchun sathlararo munosabatni aniqlash lingvopoetik tahlilning zarur shartidir.

Qoraqalpoq tilshunosligida takrorning dastlabki izohlari so'z yasalishi va morfologiya bilan bog'liq edi. Bu bosqichda tadqiqotchilar bir ildizning to'liq yoki qisman qayta kelishi natijasida hosil bo'ladigan birliklarni juft so'zlar bilan qiyosladilar. Juft so'z ikki turli asosning birikishidan hosil bo'lib, jamlash, umumlashtirish yoki taxmin ma'nolarini ifodalashi mumkin; takrorlama so'z esa, odatda, ayni asosning qaytishi orqali ko'plik, davomiylik, daraja yoki kuchaytirish ma'nosini yuzaga keltiradi. Masalan, *oziq-ovqat*, *qozon-tovoq* singari birliklarning tarkibiy modeli *ko'ra-ko'ra*, *baland-baland*, *qip-qizil* kabi shakllardan farq qiladi.

A. Bekbergenov takrorlama so'zlarning juft so'zlardan farqini tarkib, ma'no va sintaktik vazifa asosida tavsiflaydi. Uning qarashlarida bir asosning qaytishi natijasida umumiy leksik-grammatik ma'no hosil bo'lishi muhim mezon hisoblanadi [Bekbergenov, 1990]. Bu talqin takror hodisasining til tizimidagi o'rnini belgilash uchun zarur bo'lsa-da, badiiy matnda bir-biridan ajralgan holda yoki turli grammatik shaklda qaytadigan birliklarning poetik vazifasini to'liq qamrab olmaydi. Chunki badiiy takror doimo yangi lug'aviy birlik hosil qilmaydi; u mavjud birlikning muayyan kompozitsion joyda qayta qo'llanishi orqali qo'shimcha ma'no va ta'sir yuzaga keltiradi.

Shu nuqtada reduplikatsiya bilan badiiy takrori ajratish zarur. Reduplikatsiyada takrorlanish tilning me'yorlashgan modeli bo'lib, hosila ko'pincha gapda bitta bo'lak vazifasini bajaradi. Badiiy takrorda esa birliklar mustaqilligini saqlaydi, qaytish muallifning uslubiy niyatiga bo'ysunadi va uning chegarasi bir so'zdan butun gap yoki bandgacha kengayishi mumkin. Reduplikatsiyaning asosiy natijasi grammatik yoki leksik ma'no bo'lsa, badiiy takrorning natijasi semantik urg'u, ritm, emotsional kuchlanish, kompozitsion bog'lanish yoki obrazning izchil rivojidir.

Qoraqalpoq tilining stilistik imkoniyatlari yoritilgan ishlarda tovush, so'z va grammatik shakllarning nutqiy vazifasi tahlil qilinishi takrori lingvopoetik hodisa sifatida o'rganishga zamin yaratdi [Bekbergenov, 1990]. Fonostilistika doirasidagi tadqiqotlar tovushlarning faqat artikulyatsion xususiyatiga emas, balki matnda ohang, uyg'unlik va hissiy rang hosil qilishiga e'tibor qaratdi. B. Yusupova fonetik birliklarning takroriy qo'llanishi musiqiylik, tovushiy garmoniya, obrazlilik va ta'sirchanlikni yuzaga keltirishini asoslaydi [Yusupova, 2021]. Shunday qilib, takror hodisasi so'z yasalishi doirasidan chiqib, ko'p sathli matn kategoriyasi sifatida talqin qilina boshladi.

Grammatik va lingvopoetik talqin o'rtasidagi farqni sintaktik mustaqillik mezoni ham yoritadi. Takrorlama so'z tarkibidagi qismlar odatda yaxlit birlik bo'lib, ularning orasiga boshqa so'zni kiritish yoki har bir qismini alohida sintaktik vazifada qo'llash mumkin emas. Badiiy takrorda esa qaytayotgan birliklar turli gap bo'laklari tarkibida, yangi grammatik shaklda yoki uzoq masofada kelishi mumkin. Masalan, bir o'ning dastlab ega, keyin murojaat, undan so'ng kesimning ot qismi sifatida qaytishi shaklan bir leksik takror bo'lsa-da, har bir pozitsiyada yangi pragmatik rang oladi. Demak, badiiy takrorning birligi uning morfologik yaxlitligida emas, matn bo'ylab hosil qilgan semantik aloqasidir.

Tarixiy taraqqiyotda terminlarning almashuvi ham ilmiy qarashlar kengayganini ko'rsatadi. Dastlab "takroriy juft so'z" yoki "takrorlama so'z" atamallari bilan nomlangan hodisalar bir so'z doirasidagi shakllarga qaratilgan edi. Stilistik tadqiqotlarda "takror" tushunchasi nutqiy kuchaytirish vositasini, lingvopoetik ishlarda esa fonetikdan sintaktik sathgacha bo'lgan matn mexanizmini anglati boshladi. Shu sababli bugungi tadqiqotda umumiy "takror" atamasidan foydalanganda uning til hodisasimi, nutqiy usulmi yoki poetik figura ekanini aniq ko'rsatish zarur. Terminologik aniqlik nafaqat nazariy tavsif, balki misollarni tasniflash va turli tadqiqotlar xulosalarini qiyoslash uchun ham muhimdir.

Badiiy takrori til sathiga ko'ra fonetik, leksik, morfologik va sintaktik turlarga ajratish mumkin. Fonetik takror bir xil yoki akustik jihatdan yaqin tovushlarning maqsadli qaytishidir. Undosh tovushlarning takrori alliteratsiya, unli tovushlarning takrori esa assonansni hosil qiladi. Leksik takror bir so'z yoki ma'nodosh birliklarning qayta qo'llanishiga asoslanadi. Morfologik takror bir xil affiks, grammatik shakl yoki modelning parallel qaytishida namoyon bo'ladi. Sintaktik takror esa so'z birikmasi, gap qurilishi, parallel konstruksiya yoki butun misraning qaytishini qamrab oladi. Ushbu tasnif hodisani moddiy shaklini ko'rsatadi, biroq uning poetik mohiyatini aniqlash uchun matndagi pozitsiya va funksiyani ham hisobga olish kerak.

Joylashuviga ko'ra takror kontakt va distant bo'ladi. Kontakt takrorlarda birliklar yonma-yon yoki juda yaqin masofada kelib, ko'pincha kuchaytirish, davomiylik yoxud hissiy zo'riqishni ifodalaydi. Distant takrorlarda esa birliklar misra, gap, band yoki matnning turli qismlarida qaytib, kompozitsion halqa hosil qiladi. She'riy satrlar boshidagi qaytish anafora, oxiridagi qaytish epifora sifatida namoyon bo'ladi. Bir birlikning oldingi gap oxiri va keyingi gap boshida qaytishi

tutashuvni kuchaytiradi; butun konstruksiyaning parallel qaytishi esa ritmik-sintaktik uyg'unlikni ta'minlaydi [Abdinazimov 2019].

Badiiy takrorning birinchi muhim vazifasi mazmuniy markazni ajratishdir. Muallif matndagi tayanch so'z yoki konstruksiyani qaytarish orqali uning oddiy nominativ ma'nosidan tashqari qo'shimcha assotsiativ qatlam yaratadi. Takrorlangan birlik o'quvchi xotirasida mustahkamlanadi, boshqa birliklarni o'z atrofida semantik jihatdan birlashtiradi va matnning asosiy g'oyasini ko'rsatadi. Bu xususiyat, ayniqsa, falsafiy yoki ijtimoiy mazmundagi she'rlarda savol, murojaat, inkor va buyruq shakllarining qayta kelishida yaqqol ko'rinadi.

Ikkinchi vazifa ritmik-kompozitsion tashkil etishdir. She'riy nutqda ritm faqat vazn va qofiya orqali emas, balki tovushlar, so'zlar hamda sintaktik modellar davriy qaytishi orqali ham shakllanadi. Anafora satrlarni yagona intonatsion oqimga birlashtiradi, epifora yakuniy urg'uni kuchaytiradi, parallelizm esa fikr bo'laklari o'rtasida tenglik yoki qarama-qarshilik munosabatini yuzaga keltiradi. Distant takror matnning bosh va oxir qismlarini bog'lab, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashi mumkin.

Uchinchi vazifa emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirishdir. Qayta-qayta kelgan tovush yoki so'z nutq sur'atini tezlashtirishi, sekinlashtirishi, hayajon, iztirob, qat'iyat, sog'inch yoki quvonchni ifodalashi mumkin. Bu yerda takrorning soni bilan bir qatorda uning fonetik tarkibi, urg'usi, pauza bilan munosabati va kontekstdagi semantik qarshiliklar muhimdir. Masalan, portlovchi va chuqur til orqa undoshlarining zich qaytishi matnga keskinlik va kuch bag'ishlashi, ochiq unilarning izchil takrori esa ohangni kengaytirib, lirizmni kuchaytirishi mumkin. Bunday talqin tovush va ma'no o'rtasidagi bog'lanishni mutlaq deb emas, kontekstda yuzaga keladigan poetik imkoniyat deb tushunishni talab qiladi.

To'rtinchi vazifa muallif idiositilini namoyon etishdir. Muayyan ijodkor ayrim tovushlar, murojaat shakllari, so'roq konstruksiyalari yoki sintaktik parallelizmlardan muntazam foydalanishi natijasida o'ziga xos poetik tizim yaratadi. Takrorlarning chastotasi, turlari va matndagi joylashuvini qiyoslash orqali shoirning individual uslubini, janrga munosabatini va estetik strategiyasini aniqlash mumkin. Shu bois badiiy takrori alohida misol doirasida emas, ijodkor korpusi va janr tizimi doirasida o'rganish istiqbolli yo'nalishdir.

Takror matnning pragmatik yo'nalishini ham belgilaydi. Murojaatning qaytishi lirik subyekt bilan adresat o'rtasidagi aloqani kuchaytirsa, so'roq shaklining izchil kelishi javob talab qilmaydigan ritorik bosim yaratishi mumkin. Inkori birliklarining takrori muallif pozitsiyasini qat'iyalashtiradi, buyruq-istak shakllari esa tinglovchini ruhiy harakatga undaydi. Shu jihatdan bir xil struktur takror turli nutqiy vaziyatlarda turlicha natija beradi. Uning vazifasini aniqlashda gap turi, modal ma'no, adresat va lirik vaziyat hisobga olinmasa, tahlil faqat shakliy qayd darajasida qolib ketadi.

Takrorning matn hosil qiluvchi vazifasi katta hajmli poetik asarlarda, ayniqsa, muhim. Doston yoki poema davomida qaytadigan tayanch jumla voqealar qismlarini bir-biriga bog'lashi, qahramon ruhiy holatining o'zgarishini ko'rsatishi yoki muallif bahosini eslatib turishi mumkin. Birinchi qo'llanishdagi ma'no keyingi kontekstlar ta'sirida kengayib, yakuniy qaytishda umumlashtiruvchi ramz darajasiga ko'tariladi. Bunday semantik kumulyatsiya takrori oddiy takrorlashdan ajratadi: qaytgan birlik shaklan o'sha bo'lsa ham, o'quvchi tajribasida oldingi kontekstlarning ma'nosini yig'ib boradi. Shuning uchun distant takrori tahlil qilishda har bir qo'llanish nuqtasi alohida, so'ng ularning mazmuniy dinamikasi yaxlit ko'rib chiqilishi kerak.

Ajiniyoz ijodi qoraqalpoq mumtoz she'riyatida tovushiy uyg'unlik va badiiy shaklning sarmahsul namunalarini beradi. Shoir Sharq she'riyati an'alarini qoraqalpoq tilining fonetik tabiati bilan uyg'unlashtirib, alliteratsiya, assonans, ichki qofiya va leksik takrorlardan obrazni yorqinlashtirish vositasi sifatida foydalanadi. Uning she'rlarida tovush takrori ko'pincha portret detalini ajratish, misraning ohangini tartibga solish va hissiy bahoni kuchaytirish bilan bir vaqtda xizmat qiladi.

"Qirmizi" she'ridagi quyidagi misralarda **q** undoshining izchil qaytishi diqqatga sazovor:

Jáhänge teñ kelmės onday záberdes,

Qashı qálem, qabaqları qırmızı.

Ikkinchi misradagi *qashı, qálem, qabaqları, qırmızı* birliklarida **q** tovushining takrori oddiy fonetik moslikdan ko'ra kengroq vazifa bajaradi. Birinchidan, u misraning ritmik bo'linishini tartibga soladi; ikkinchidan, tasvirlanayotgan tashqi belgilarni yagona portret qatoriga birlashtiradi; uchinchidan, misra oxiridagi *qırmızı* so'ziga olib boruvchi tovushiy zanjir yaratadi. **Q** undoshi turli unilalar bilan *qa-qá-qa-qı* ko'rinishida qaytib, bir xillikni emas, fonetik variantlar orqali uyg'unlikni hosil qiladi. Demak, alliteratsiya bu yerda tasvir, ritm va bahoni birlashtiruvchi kompozitsion mexanizmdir.

"Ay álip" she'rida **q** va **k** undoshlarining almashib takrorlanishi yanada zich tovushiy tuzilma yaratadi:

Qap-qapaq qashıñ qaqarğa qaqışan súmbilleriñ,

Kep-kirpik kózleriñdur, tiyğı jáwhar tilleriñ.

Mazkur baytda *qap-qapaq, qashıñ, qaqarğa, qaqışan* hamda *kep-kirpik, kózleriñ* birliklari o'zaro tovushiy bog'langan. **Q** va **k** fonemalari artikulyatsion yaqinligi sababli yagona konsonantik maydon hosil qiladi. Shu bilan birga, *qap-qapaq* va *kep-kirpik* shakllaridagi qisman reduplikatsiya fonetik takror bilan morfologik kuchaytirishni bir nuqtada birlashtiradi. Natijada sevgili portretining qosh va kiprik detallari nafaqat nomlanadi, balki tovush orqali bo'rttiriladi. Baytning poetik ta'siri bir xil fonemaning ko'p marta kelishidagina emas, shu fonemalar atrofida semantik jihatdan o'zaro aloqador portret leksikasining uyushishidan yuzaga keladi [Ajiniyoz 1975, 77].

Ushbu misollar badiiy takrori faqat "qaysi tovush necha marta ishlatilgan?" degan savol bilan cheklash yetarli emasligini ko'rsatadi. To'laqonli lingvopoetik tahlil takrorning matndagi joylashuvi, leksik birliklar semantikasi, sintaktik parallelizm, ritm va obraz bilan munosabatini qamrab olishi kerak. Fonetik takror semantik jihatdan betaraf so'zlarda tasodifiy uchrashi mumkin, ammo Ajiniyoz misollarida u portret qismlarini ketma-ket tashkil etuvchi birliklarda markazlashgan. Bu esa takrorning muallif tomonidan estetik maqsadda faollashtirilganini ko'rsatadi.

Ajiniyoz poetikasidagi takrorlarning yana bir xususiyati xalq og'zaki ijodi va yozma Sharq she'riyati an'alarining

tutashuvda namoyon bo'ladi. Alliteratsiya turkiy og'zaki poetik tafakkurda misralarni esda saqlash va ijro ohangini barqarorlashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, yozma lirika doirasida portret, tashbeh va qofiya tizimi bilan uyg'unlashadi. Shuning uchun shoir ijodidagi fonetik takrorni faqat texnik bezak emas, og'zaki va yozma estetik tajribani bog'lovchi vosita sifatida ham baholash mumkin.

Baytlardagi fonetik tashkilni assonansdan ajratib bo'lmaydi. Q undoshiga birikkan a, á va i unilari bir tomondan konsonantik takrorning turli bo'g'inlarda tabiiy eshitisilinishi ta'minlasa, ikkinchi tomondan, misraning ochiq-yopiq bo'g'inlar almashinuvini tartibga soladi. Demak, alliteratsiya va assonans ko'pincha mustaqil emas, o'zaro birikkan tovushiy tizim sifatida ishlaydi. Faqat undoshlar sanog'iga tayanish bu tizimning melodik tomonini, faqat unilarni qayd etish esa semantik tayanch so'zlar orasidagi konsonantik aloqani ko'rmay qolishga olib keladi. Kompleks fonostilistik tahlil bo'g'in qurilishi, urg'u, tovushlarning satr bo'ylab taqsimlanishi va qofiya bilan munosabatini birgalikda yoritishi zarur.

Ajiniyoz misollarida grafik shakl va talaffuz munosabati ham metodik ahamiyatga ega. Hozirgi qoraqalpoq lotin yozuvidagi q, k, á, i, n, g kabi belgilar matnning tovush tarkibini aniqroq ko'rsatadi, biroq eski nashrlarni zamonaviy grafikaga o'girishda ayrim variantlar paydo bo'lishi mumkin. Tadqiqotchi alliteratsiyani baholashdan oldin matnning qaysi nashriga tayanganini, transliteratsiya qilingan bo'lsa, qaysi prinsip qo'llanganini ko'rsatishi kerak. Aks holda, grafik moslik fonetik takror deb qabul qilinishi yoki, aksincha, bir fonemaning turli grafik ifodasi tahlildan tushib qolishi ehtimoli bor.

Qoraqalpoq lingvopoetikasining zamonaviy bosqichida alohida ijodkorlar va janrlar tili monografik tadqiq etilmoqda. D. Erjanovanning Ibrayim Yusupov poemalari, Z. Kazimbetovanning J. Izbosqanov asarlari, J. Buxarbaevaning T. Matmuratov ijodi hamda A. Nasirovanning qoraqalpoq xalq aytishuvlariga bag'ishlangan ishlari tadqiqot obyektining kengayganini ko'rsatadi [Erjanova 2021; Kazimbetova 2022; Buxarbaeva 2024; Nasirova 2024]. Bu ishlar lingvopoetik tahlilning faqat mumtoz she'riyat bilan cheklanmasdan, zamonaviy poeziya, folklor va individual uslubni ham qamrab olayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, badiiy takrorni o'rganishda bir necha muammo saqlanib qolmoqda. Birinchisi, terminologik bir xillik masalasidir. Takror, takrorlama so'z, reduplikatsiya, tovushiy takror, anafora va parallelizm ba'zan bir xil tasnif darajasida qo'llanadi. Holbuki, reduplikatsiya yasaliish modeli, anafora matndagi pozitsiya, alliteratsiya esa takrorlanayotgan birlikning fonetik tabiatini bildiradi. Demak, tasnif mezonlari aralashtirilmasligi, "til sathi – joylashuv – struktur shakl – poetik funksiya" ketma-ketligida berilishi zarur.

Ikkinchi muammo dalillash usuli bilan bog'liq. Ayrim tahlillarda bitta tovushning bir necha marta uchrashi alliteratsiya deb qayd etiladi, ammo uning matnning mazmuni va ritmiga qo'shgan hissasi ko'rsatilmaydi. Lingvopoetik xulosa uchun takrorning fon statistikasi, tasodifiylik ehtimoli, semantik markazga yaqinligi va boshqa tovushlar bilan kontrasti hisobga olinishi kerak. Korpus texnologiyalaridan foydalanish ijodkor asarlarida muayyan fonema, so'z yoki konstruksiyaning chastotasini qiyoslash, individual va umumtil me'yorini ajratish imkonini beradi.

Uchinchi muammo matn variantlari bilan bog'liq. Mumtoz asarlarning turli nashrlarida imlo, diakritik belgi, so'z ajratish va tinish belgilaridagi farqlar fonetik hamda grafik takror tahliliga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun tahlil qilinaotgan nashr aniq ko'rsatilishi, zarur hollarda variantlar qiyoslanishi va transliteratsiya prinsiplari bayon qilinishi lozim. Ayniqsa, qoraqalpoq yozuvining turli grafik bosqichlari o'rtasida matn ko'chirilganda tovushiy o'xshashlik bilan grafik o'xshashlikni farqlash muhim.

To'rtinchi muammo takrorning pragmatik va kognitiv ta'sirini o'rganish bilan bog'liq. Hozirgi tadqiqotlarda takrorning ekspressiv vazifasi ko'p qayd etiladi, ammo u o'quvchining diqqatini qanday boshqarishi, xotirada qaysi birliklarni faollashtirishi va matnning hissiy qabuliga qanday ta'sir ko'rsatishi tajribaviy usullar bilan kam tekshirilgan. Fonetik tajriba, o'qish sur'ati tahlili, tinglovchi reaksiyasi va raqamli akustik o'lchovlar lingvopoetik tavsifni yangi dalillar bilan boyitishi mumkin.

Beshinchi muammo qiyosiy mezonning yetishmasligidir. Bir ijodkorda uchragan takrorni individual uslub belgisi deb baholash uchun uni shu davr, janr va tilga mansub boshqa matnlar bilan qiyoslash talab etiladi. Agar ayni konstruksiya xalq qo'shiqlari yoki mumtoz lirikaning umumiy qolipi bo'lsa, u shoir idiosstilidan ko'ra an'anaviy poetik kodni ifodalashi mumkin. Aksincha, umumiy modelning noodatiy chastotada, yangi semantik vazifada yoki o'ziga xos kombinatsiyada qo'llanishi individual mahoratni ko'rsatadi. Shuning uchun muallif korpusi, davr korpusi va umumtil korpusini bosqichma-bosqich qiyoslash lingvopoetik xulosalarning ishonchligini oshiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari qoraqalpoq tilshunosligida takror hodisasini o'rganish uch asosiy bosqichdan o'tganini ko'rsatadi. Birinchi bosqichda takrorlama so'zlarning grammatik-semantik tabiati va juft so'zlardan farqi belgilandi. Ikkinchi bosqichda stilistika hamda fonostilistika takrorning ta'sirchanlik, ohangdorlik va kuchaytirish imkoniyatlarini ochdi. Uchinchi bosqichda lingvopoetik tadqiqotlar takrorni muallif idiosstili, matn kompozitsiyasi va obraz tizimi bilan bog'liq ko'p sathli hodisa sifatida talqin qila boshladi. Bu bosqichlar bir-birini inkor etmaydi; aksincha, grammatik shakl haqidagi bilim lingvopoetik funksiyani aniqroq izohlash uchun asos bo'ladi.

Maqolada takrorni tahlil qilishning to'rt o'lchovli modeli taklif qilinadi. Birinchi o'lchov – takrorlanayotgan birlikning til sathi: tovush, morfema, so'z yoki sintaktik qurilma. Ikkinchi o'lchov – matndagi joylashuvi: kontakt, distant, anaforik, epiforik yoki halqasimon. Uchinchi o'lchov – struktur o'zgarish: aynan takror, qisman o'zgargan takror yoki parallel variant. To'rtinchi o'lchov – poetik funksiya: semantik urg'u, ritmik-kompozitsion bog'lanish, emotsional-ekspressiv kuchaytirish, obraz yaratish yoki idiosstilni belgilash. Bir misol bir vaqtning o'zida ushbu o'lchovlarning bir nechtasiga mansub bo'lishi mumkin.

Ajiniyoz she'riyati tahlili fonetik takrorning leksik-semantik uyushuv bilan birgalikda ishlashini ko'rsatdi. Q va k

undoshlarining qaytishi portret leksikasi tarkibida jamlangani sababli alliteratsiya ritmik bezak darajasidan chiqib, obrazni quruvchi vositaga aylanadi. Qisman reduplikatsiya esa badiiy takror bilan grammatik kuchaytirishning kesishish nuqtasini hosil qiladi. Demak, reduplikatsiya va badiiy takrori qat'iy ajratish bilan birga, ular poetik matnda o'zaro hamkorlik qilishi mumkinligini ham e'tiborga olish zarur.

Natijalar takrorning badiiy qiymati uning ko'pligi bilan avtomatik ravishda belgilanmasligini ham ko'rsatadi. Juda zich takror ayrim kontekstda hissiy cho'qqi yaratasa, boshqa holatda nutqni og'irlashtirishi mumkin; kam takrorlangan birlik esa strategik pozitsiyada kelib kuchli urg'u hosil qiladi. Shuning uchun miqdoriy ma'lumot funksional tahlil bilan to'ldirilishi kerak. Takrorning satr boshi, qofiya nuqtasi, murojaat yoki kulminatsiya yaqinida joylashuvi uning ta'sir darajasini o'zgartiradi. Pozitsion salmoqni hisobga olish qoraqalpoq she'riy matnlaridagi takrorlarni yanada aniq tavsiflash imkonini beradi.

Muhokama doirasida badiiy takrorning tarjima masalasi ham alohida e'tiborni talab qiladi. Tovush tizimlari farqli bo'lgan tillarda **q** va **k** alliteratsiyasini aynan saqlash har doim ham mumkin emas. Tarjimon obrazning leksik mazmuni, vazn, qofiya va tovushiy takror o'rtasida tanlov qiladi. Lingvopoetik tahlil asl matnda qaysi vazifa ustuvor ekanini ko'rsatib bersa, tarjimada funksional ekvivalent topish osonlashadi. Masalan, ayni fonemani ko'chirish imkonsiz bo'lsa, ritmik parallelizm yoki yaqin akustik tovushlar orqali ekspressiv ta'sir qisman tiklanishi mumkin. Demak, takror tadqiqi matn talqini bilan birga tarjima amaliyoti uchun ham zarur metodik asos beradi.

XULOSA. Qoraqalpoq tilshunosligida badiiy takror haqidagi qarashlar grammatik tavsifdan ko'p sathli lingvopoetik talqinga tomon rivojlandi. Dastlab takrorlama so'zlarning tuzilishi, ma'nosi va juft so'zlardan farqi aniqlangan bo'lsa, keyingi stilistik hamda fonostilistik izlanishlar tovush, so'z va konstruksiyalar qaytishining estetik imkoniyatlarini ochib berdi. Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlar esa takrori matn kompozitsiyasi, obraz, emotsional ekspressiya va muallif idiositili bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida o'rganmoqda. Badiiy takrori aniq tavsiflash uchun uning til sathi, matndagi pozitsiyasi, struktur o'zgarishi va poetik funksiyasini alohida, ammo o'zaro bog'liq mezonlar sifatida qo'llash lozim. Ajiniyoz she'riyatidagi **q** va **k** undoshlari alliteratsiyasi fonetik takrorning ritm yaratish, portret detallarini birlashtirish va hissiy bahoni kuchaytirish vazifalarini bir paytda bajarishini ko'rsatadi. Bu holat tovush takrorini faqat miqdoriy belgi emas, semantik va kompozitsion faol vosita sifatida baholash zarurligini tasdiqlaydi. Kelgusida qoraqalpoq badiiy matnlarining raqamli korpusini yaratish, takrorlarning chastota va pozitsion xususiyatlarini statistik o'rganish, matn variantlarini qiyoslash hamda o'quvchi qabuliga ta'sirini tajribaviy tekshirish muhimdir. Shunda badiiy takrorning milliy poetik tafakkurdagi o'rni yanada chuqurroq ochilib, qoraqalpoq lingvopoetikasi uchun izchil terminologik va metodologik asos shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдиназимов Ш. Н. *Лингвопоэтика*. – Нөкис: ҚМУ баспасы, 2019.
2. Аладьина А. А. *Лексический повтор с синтаксическим распространением в современном русском языке*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1985.
3. Артемов В. А. *Экспериментальная фонетика*. – Москва, 1956.
4. Эжинияз. *Таңламалы шығармалары*. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1975.
5. Бекбергенов А. *Қарақалпақ тилинің стилистикасы*. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990.
6. Бухарбаева Ж. Ж. Т. *Матмуратов асарларининг лингвопоэтикаси*: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2024.
7. Векшин Г. В. *Фоностилистика текста: звуковой повтор в перспективе смыслообразования*: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Москва, 2006.
8. Вольская Н. Н. *Стилистические функции звукового и морфологического повтора в автобиографической прозе М. И. Цветаевой* // *Филологические науки*. – 1999. – № 2. – С. 45–53.
9. Головкина Н. М. *Повтор как стилистическое средство в различных видах и жанрах речи: на материале современного немецкого языка*: дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1964.
10. Ержанова Д. К. *Ибрайим Юсупов поэмаларининг лингвопоэтик таҳлили*: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2021.
11. Иванчикова Е. А. *Лексический повтор как экспрессивный прием синтаксического распространения* // *Мысли о современном русском языке*. – Москва: Наука, 1969. – С. 126–139.
12. Казымбетова З. М. Ж. *Избасқанов асарларининг лингвопоэтик таҳлили*: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2022.
13. Киселев А. Е. *Лексическое повторение как грамматическое средство русского языка*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1954.
14. Надежкин А. М. *Корневой повтор в художественной речи М. И. Цветаевой*: дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2015.
15. Насырова А. П. *Қорақалпоқ халқ айтысларының лингвопоэтикалық анализи*: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2024.
16. Пирогова Н. К. Н. С. *Трубецкой и фонетическая стилистика* // *Вестник Московского университета. Серия 9: Филология*. – 1992. – № 1. – С. 53–58.
17. Пирниязова А. К. *Қарақалпақ тил билиминдеги лингвопоэтика маселелери* // *Hamkor konferensiyalar*. – 2025. – № 1 (13). – С. 222–225. – URL: <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/1600>
18. Трубецкой Н. С. *Основы фонологии*. – Москва, 2000.
19. Юсупова Б. *Фоностилистика*. – Тошкент: Tafakkur avlodi, 2021.